

Toshkent viloyati Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
boshlig'i Z.Yo'ldashov

Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi
boshlig'i o'rinbosari M.Abdullaevdan

B I L D I R G I

19.04.2024-yil.

Nurafshon sh.

Sizga shuni ma'lum qilamanki, fuqarolar R.Sribjey va (shaxsini sir saqlanishini so'ragan)larning Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mehnat qonunchiligiga rioya etmayotganligi yuzasidan qilgan murojaatlariga ko'ra, bosh boshqarmaning 2024-yil 16-aprel kunidagi XS-96-sonli buyrug'iga asosan Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi Davlat mehnat huquq inspektorlari A.Abdunabiyev va M.Isomiddinovlar Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasida tekshiruv o'tkazishga yuborilgan.

Shunga ko'ra, tekshiruv jarayonida qo'shimcha savollar tug'ilayotganli va xizmat zaruriyati tufayli bosh boshqarmaning 2024-yil 16-aprel kunidagi XS-96-sonli buyruq muddatini 5 (besh) kun muddatga (dam olish kunlaridan tashqari) uzaytirishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Davlat mehnat nazorati
inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari



M.Abdullaev



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI

B U Y R U Q

16 aprel 2024 yil.

XS-96-son

**“Jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaati yuzasidan tekshiruv
o‘tkazish to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 535-moddasi, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi “Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3913-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi Nizomi hamda fuqarolar R.Sribjey va (shaxsini sir saqlanishini so‘ragan)larning Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mehnat qonunchiligiga rioya etmayotganligi yuzasidan qilgan murojaatiga muvofiq

B U Y U R A M A N:

1. Fuqarolar R.Sribjey va (shaxsini sir saqlanishini so‘ragan)larning Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mehnat qonunchiligiga rioya etmayotganligi yuzasidan qilgan murojaati ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fuqarolar R.Sribjey va (shaxsini sir saqlanishini so‘ragan)larning murojaatga asosan, Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasida tekshirish o‘tkazish uchun, Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi Davlat mehnat huquq inspektorlari M.Isomitdinov va A.Abdunabiyevlarni 2024-yil 16-apreldan 18-aprelgacha tekshirishga yuborilsin.

3. Tekshirish davomida, aniqlangan qonun buzilish holatlari yuzasidan mansabdor shaxslarga nisbatan, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning tegishli moddalariga asosan, belgilangan tartibda ta’sir chorasi ko‘rilsin.

4. Tekshirishga jalb qilingan Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi Davlat mehnat huquq inspektorlari tekshirish yakunlari bo‘yicha to‘plangan hujjatlar va

ma'lumotni joriy yilning 19-aprelga qadar Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi boshlig'i M.Tashkulovga taqdim etsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Bosh boshqarmaning birinchi o'rinbosari S.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

Bosh boshqarma boshlig'i



Z.Yo'ldashov